O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY- SIYOSIY
FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД-60 220500
2024 yil “10” 03

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____
R.I.Xalmuradov
2024 yil “__” _____

“IJTIMOIY FALSAFA”

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220500 – Falsafa

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
IF 1406	2025-2026	4	6
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili- O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4 soat

	Fan nomi	Auditoria mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami:
1.	Ijtimoiy falsafa	78	102	180

Fanning maqsadi (FM)	
1	**Fanni o‘qitishdan maqsad va vazifalari** - Falsafa ta’limiga ixtisoslashgan talabalarga “Ijtimoiy falsafa” fanining mohiyati, maqsadi, vazifalari, muammolari haqida atroflicha bilim berish va shu asosda ularda bo’lg’usi bakalavr-pedagog faoliyati uchun zarur bo’lgan kasbiy ko’nikma va malakalarini shakllantirish. Shu bilan birga talabalarda jamiyat, uning asosiy hayot sohalari, kechayotgan murakkab ijtimoiy jarayonlar haqida bilimlar berish orqali falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, jamiyatda amal qiladigan qonunlarning o’ziga hos jihatlarini jamiyatning real hayoti, unda kechayotgan voqea, jarayonlarni to’g’ri anglash qobiliyatlarini rivojlantirish; jamiyatni ilmiy bilish yo’llari, usullarini qo’llash bilan qurollantirish

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)	
II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg’ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Ijtimoiy falsafa fanining bahs mavzusi va vazifalari (2 s)** Falsafa, ijtimoiy falsafa. Ular o’rtasidagi umumiy tomonlar va o’ziga xoslik. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar majmui sifatida. Ijtimoiy falsafa va ontologiya. Ijtimoiy falsafa va gnoseologiya. Ijtimoiy falsafa va metodologiya. Ijtimoiy falsafa va antropologiya. Ijtimoiy falsafaning predmeti, o’rganish ob’ekti. Ijtimoiy falsafaning asosiy muammolari: jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilish. Ijtimoiy falsafaning tayanch tushunchalari. Jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy bilish, madaniyat, ma’naviyat, ijtimoiy hayot, tadrijiy rivojlanish, inqilobiy rivojlanish, ijtimoiy-siyosiy tizim, ijtimoiy xavfsizlik, mustaqillik, ijtimoiy xamkorlik, fuqarolik jamiyati, shaxs. Ijtimoiy falsafaning jamiyat hayotidagi o’rni va funksiyalari. Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida tutgan o’rni.
M2	**Ijtimoiy falsafa tarixi** Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari. Ijtimoiy falsafa - jahon falsafasi tarixining tarkibiy qismi: Qadimgi Sharqda shakllangan ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Xitoy, Xindiston, Markaziy Osiyo. Qadimgi Yunon faylasuflarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Suqrot, Aflotun, Arastu. O’rta asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. O’rta asrlarda G’arbiy Yevropa mamlakatlarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Akviniyalik Foma. G’arbiy Yevropa Uyg’onish davridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Tomas Mor. Tommazo Kampanella. Yangi davr G’arbiy Yevropa olimlarining ijtimoiy-falsafiy g’oyalari. XVII-XVIII asrlarda shakllangan ma’rifatparvarlik g’oyalari. Tomas Gobbs. SHarl Lui Monteske. Jan Jak Russo. Nemis mumtoz falsafasida jamiyat va inson muammolari. Ijtimoiy falsafaning fan sifatida shakllanishi. Gegel. Feyerbax. K. Marks, Ogyust Kont, Gerbert Spenser. XX asr va hozirgi davr ijtimoiy falsafasi taraqqiyoti Emil Dyurkgeym, Osvald Shpengler. Karl Yaspers. Anri Bergson. O’zbekiston Prezident Islom Karimov asarlarida ijtimoiy falsafa mustaqilligi va ijtimoiy falsafiy fikrlar taraqqiyoti.
M3	**Jamiyat – yaxlit tizim sifatida** Jamiyatning falsafiy talqini. Jamiyat ijtimoiy falsafaning tadqiqot ob’ekti sifatida. «Jamiyat» tushunchasining ma’nosi. Jamiyatning mohiyati. Jamiyat ob’ektiv borliqning tarkibiy qismi, tabiat taraqqiyotining mahsuli va ko’rinishi. Jamiyatda amal qiladigan qonunlar, ularning o’ziga xos jihatlari. Jamiyat – yaxlit tizim sifatida. Jamiyat hayoti va uning o’ziga xos jihatlari. Barqarorlik va beqarorlik. Onglilik va ongsizlik. Tartib va tartibsizlik. Jamiyat hayotining asosiy sohalari. Jamiyatning iqtisodiy hayoti. Jamiyatning siyosiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy hayoti. Jamiyatning ma’naviy hayoti. Jamiyat. Ideal jamiyat. Axborotlashgan jamiyat. Fuqarolik jamiyati.
M4	**Jamiyat hayoti va taraqqiyoti tabiiy va ijtimoiy omillari.** Tabiat va jamiyat, ular orasidagi uzviy aloqadorlik. Tabiat, inson va jamiyat orasidagi uzviy bog’liqlik va aloqadorlikning falsafa va fan tarixida qo’yilishi. Jamiyat tabiat taraqqiyotining davomi, bio va sotsioevolyutsiyaning mahsuli va ko’rinishi sifatida. Jamiyatga taraqqiyotning tabiiy omillari: geografik muhit, demografik omil.(Aholi zichligi). Geografik muhit va uning jamiyatga ta’siri. Tabiat jamiyat hayoti va taraqqiyotiningtabiiy asosi va sharti. Kosmosfera, noosfera, biosfera tushunchalari to’g’risida. V.M.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasi. Geografik muhit va jamiyat orasidagi dialektik aloqadorlik. Tabiatning jamiyatga va jamiyatning tabiatga ta’siri. Geografik determinizm nazariyasi. Geografik siyosat tushunchasi. Geografik siyosat davlat siyosatining muhim yo’nalishi sifatida. O’zbekistonning geografik siyosati. Demografiya demografik omil. Aholi zichligi tushunchasi. Aholi zichligi qonunining jamiyatda amal qilish xususiyatlari. Demografiya - aholi, nufus haqidagi fan. Jamiyatdagi demografik jarayonlar. Migratsiya. Urbanizatsiya, Ruralizatsiya. Demografik jarayonlarning jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta’siri. Jamiyatning demografik tarkibi. Demografik muammolar.
M5	**Jamiyatning iqtisodiy hayoti** Jamiyatning iqtisodiy hayoti tushunchasi. Moddiy ishlab chiqarish jamiyat iqtisodiy hayotining asosi. Moddiy ishlab chiqarish tushunchasi. Texnika, uning taraqqiyoti. Texnologiya. Texnik inqiloblar, ularning moddiy hayotga ta’siri. Texnika taraqqiyotida fanning tutgan o’rni. Fan-texnika inqilobi. Moddiy iqtisodiy ishlab chiqarish usuli va uning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ularning tarkibi. Ishchi kuchi. Ishlab chiqarish vositalari.

	Ishlab chiqarish munosabatlari va uning o'ziga xos tomonlari. Mulkiy munosabat - ishlab chiqarish munosabatining asosi sifatida. Mulk tushunchasi. Mulk shakllari. Intellektual mulk. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mulkchilikning xilma-xil shakllarini vujudga keltirishning ob'ektiv zarurligi. Tadbirkorlikni qullab quvvatlash, ishlab chiqarishning ilg'or usullarini hayotga tadbiq etish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxotlarning bosh maqsadi. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" va iqtisodoyatni rivojlantirishning ustivor vazifalari. Jamiyat iqtisodiy hayotida amal qiladigan qonunlar. Ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar xarakteri va taraqqiyot darajasiga muvofiq kelishi qonuni va uning amal qilish xususiyatlari.
M6	**Jamiyatning ijtimoiy hayoti** Jamiyatning ijtimoiy hayoti tushunchasi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va uning asosiy elementlari. Jamiyatning etnik tarkibi. Urug'. Qabila. Elat. Millat. Milliy va millatlararo munosabatlar. Milliy hamjihatlik, millatlararo hamkorlik va hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot omili. Jamiyatning demografik tarkibi. Jamiyatning sinfiy tarkibi. Sinflar. Sinfiy munosabatlar. Stratalar. Mobillik ochiq demokratik jamiyat ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyati. Aholining istiqomat joylariga ko'ra ijtimoiy tarkibi. SHahar aholisi. Qishloq aholisi. Shahar va qishloq orasidagi munosabatlar. Aholining ma'lumot va kasbga ko'ra tarkibi. Ta'lim, uning jamiyatdagi o'rni. Ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati taraqqiyotining muhim tamoyili. Ijtimoiy siyosat davlat siyosatining muhim yo`nalishi. O`zbekiston davlati ijtimoiy siyosatining insonparvarlik mohiyati.
M7	**Jamiyatning siyosiy hayoti** Siyosat. Jamiyatning siyosiy hayoti. Siyosiy tizim. Siyosiy ong. Siyosiy munosabatlar. Siyosiy muassasa va tashkilotlar. Davlat. Jamoat tashkilotlari. Ijtimoiy harakatlar. Nodavlat, notijorat tashkilotlar. Jamiyot va boshqaruv. Jamiyat boshqaruvining tarixiy ko`rinishlari. O`z-ozini boshqaruv. Maxsus boshqaruv. Davlat jamiyat siyosiy hayotining asosi. Davlat. Jamiyat siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Demokratik davlat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Huquqiy demokratik davlat. Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish – bosh strategik maqsadimiz. Demokratik davlatning inson huquqlari, erkinlari hamda manfaatlarining ro'yobga chiqarishdagi o'rni. Jamiyatning siyosiy tizimi. Xalqaro siyosiy tizim. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" g'oyasining mazmun-mohiyati. Konstitutsiya – demokratik jamiyat siyosiy va huquqiy hayotini tashkil etish takomillashtirishning muhim omili.
M8	**Jamiyatning ma'naviy hayoti** Ma'naviyat. Jamiyatning ma'naviy hayoti. Ma'naviy hayotining tarkibiy elementlari. Ma'naviy ehtiyoj. Ma'naviy munosabat. Ma'naviy ishlab chiqarish, uning mohiyati. Ma'naviy o'zlashtirish.

	Jamiyat ma'naviy hayotida vorislik va yangilanish. Ijtimoiy ong – jamiyat ma'naviy hayotining asosi. Ijtimoiy ong strukturasi. Ijtimoiy va individual ong. Ijtimoiy ong sohalari. Kundalik va nazariy ong. Ijtimoiy ong darajalari. Ijtimoiy ruhiyat. Ijtimoiy mafkura. Milliy mentalitet. Milliy g'oya va mafkura. Milliy g'oya va ijtimoiy taraqqiyot. Ijtimoiy ong shakllari. Axloqiy ong. Diniy ong. Siyosiy va huquqiy ong. San'at. Fan. Falsafa. Ma'naviyatning hozirgi zamon talqini. Ma'naviyat. Ma'naviy hayot. Ma'naviy tiklanish va taraqqiyot. Birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida ma'naviyat va uni takomillashtirish muammolari. Ta'lim tizimini isloh qilish – jamiyat ma'naviy hayotini takomillashtirishning muhim omili. Ovro'pa noratsional axloq falsafasi; Kirkegaard axloqiy ta'limotining diniy-e'tiqodiy asoslari; Artur SHopenhauer axloqiy qarashlarining ixtiyor tushunchasiga bo'ysundirilishi; Nitsshe axloq falsafasida inson muammosi va qadriyatlarni qayta baholash tamoyili. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus mumtoz axloq falsafasining vujudga kelishida L. Tolstoy va F. Dostoevskiy axloqiy qarashlarining ahamiyati; Vl. Solovyov, N. Losskiy, N.Berdyaev, I.Ilin, B.Visheslavsev va boshqa mutafakkirlar axloqiy ta'limotlarining mumtozlik xususiyati.
M9	**Fan va uning jamiyat taraqqiyotidagi. o'rni** Fan – ijtimoiy ong shakli. Fanning o'ziga xos xususiyatlari. Fan - ilmiy bilimlar tizimi. Ilmiy faoliyat, uning o'ziga xos jihatlari. Fan – ijtimoiy institut. Fanlar klassifikatsiyasi. Fandagi differensiatsiya va integratsiya jarayonlari. Ilmiy bilimlar taraqqiyotidagi vorisiylik. Fanning shakllanishi va taraqqiyoti. Qadimgi Sharq mamlakatlarida qastlabki ilmiy bilimlarning shakllanishi. Qadimgi Yunonistonda falsafa fani taraqqiyotidagi ning vujudga kelishi. Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlarining jahon fani taraqqiyotiga o'rni va roli. XVI-XVII asrlarda Yevropada fan. Fan taraqqiyotining tarixiy bosqichlari. Klassik fan. Noklassik fan. Postnoklassik fan. Hozirgi zamon fani va uning o'ziga xos xususiyatlari. Axborotlashgan jamiyat va fan.O'zbekistonda ilm-fan rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
M10	**Madaniyat tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari. Qadriyatlar** Madaniyat tushunchasi. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Madaniyatning shakllanish va rivojlanish tarixi. Madaniyatlar tarixining jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadorligi. Madaniyat haqidagi qarashlar. Madaniyatning jamiyatda tutgan o'rni. Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik. Sivilizatsiya madaniy – ma'naviy rivojlanishning mahsuli sifatida. Mustaqillik va madaniyatimiz taraqqiyotining istiqbollari. Yuksak madaniyatli inson, barkamol shaxsni tarbiyalash – fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim omili. Qadriyatlar tushunchasining mazmuni. Qadriyatlar - ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili. Qadriyatlarning o'ziga xos jihatlari. Qadriyatlar tizimi va ko'rinishlari. Moddiy qadriyatlar. Tabiat va tabiiy qadriyatlar. Tabiiy boyliklar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni. Moddiy qadriyatlar.

	Madaniy-ma'naviy qadriyatlar. Axloqiy qadriyatlar. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar. Mustaqillik. Tinchlik. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik. Milliy hamjihatlik va millatlararo totuvlik. Milliy va diniy bag'rikenglik. Ijtimoiy hamkorlik. Intellectual mulk. Fan. Adabiyot. San'at. Inson – eng oliy qadriyat. Demokratik davlat: inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlari.ning kafolatlanishi. Mustaqillik va qadriyatlar.
M11	**"Qonun"-ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida** Qonun tushunshasi uning mazmun va mohiyati. Qadimgi G'arb va Sharq faylasuflarining qonun to'g'risidagi qarashlari. Jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining shakllanish va amal qilishi. Ehtiyoj va manfaat ijtimoiy qonunlar talablarining dastlabki ifodasidir
M12	**Jamiyat va shaxs** Jamiyat va shaxs, ularning uzviy birligi va aloqadorligi. Jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi falsafiy qarashlar. Jamiyatning shaxsga ta'siri. Shaxsning jamiyatga ta'siri. Shaxs erkinligi va mas'uliyati. Tanlov erkinligi. Shaxsning tarixiy tiplari. Shaxsiy qaramlik. Mulkiy qaramlik. Qaram shaxs. Shaxs mustaqilligi. Mustaqil shaxs. Shaxsning erkinligi va mas'uliyati. Iqtisodiy erkinlik. Siyosiy erkinlik. Ma'naviy erkinlik. Inson erkinliklari va haq-huquqlari. Mustaqillik sharoitida inson haq-huquqlari va erkinligining ta'minlanishi. Fuqarolik jamiyati va shaxs.
M13	**Ijtimoiy taraqqiyot tabiiy-tarixiy jarayon sifatida** Ijtimoiy taraqqiyot. Progress. Regress. Ijtimoiy taraqqiyot tabiiy-tarixiy jarayon sifatida. Ijtimoiy taraqqiyot haqidagi qarashlar. Ijtimoiy taraqqiyotning davriylik nazariyasi. Ijtimoiy taraqqiyotni oddiy, chiziqli rivojlanish shakli sifatida tushunish. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi zamon konsepsiyalari. Ijtimoiy taraqqiyotga formatsion yondashuv. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashuv. Tarixiy jarayon muammosining hozirgi zamon falsafiy ta'limotlarida qo'yilishi va hal etilishi. Arnold Toynbi qarashlari, Karl Yaspers tarixiy jarayonlar mazmuni haqida. Karl Popper, Fridrix Nitshe, Osvald Shpenglerlarning ijtimoiy taraqqiyot to'g'risidagi qarashlari. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlari tushunchasi. Ijtimoiy qonunlarning obyektiv xarakteri. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining o'ziga hos xususiyatlari. Ijtimoiy taraqqiyotda ob'yektivlik va sub'yektivlik. Ijtimoiy taraqqiyotning shakl va ko'rinishlari. Inqilobiy va tadrijiy taraqqiyot. Ijtimoiy inqilob tushunchasi. Ijtimoiy inqilobning tarixiy taraqqiyotdagi o'rni. Tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyot, uning o'ziga xos jihatlari. O'zbekistonning o'z ijtimoiy taraqqiyot yo'li – taraqqiyotning «O'zbek modeli», uning o'ziga xos jihatlari. Jamiyat hayotidagi beqarorlik va barqarorlik. Jamiyatni insonparvarlashtirish hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishi sifatida.
M14	**Ijtimoiy taraqqiyot sub'yektlari va harakatlantiruvchi kuchlari** Ijtimoiy extiyoj, manfaatlar va ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni. Manfaat va ehtiyojlar – ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi. Moddiy va ma'naviy ehtiyojlar. Ijtimoiy taraqqiyotning sub'yektlari tushunchasi. Xalq ommasi. Sinflar va millatlar. Shaxsning tarixdagi o'rni. Ijtimoiy taraqqiyotda inson omili. «Xalq» tushunchasi mazmuni. Xalq. Olomon. Ular orasidagi o'zaro aloqadorlik va

	farqlari. Xalq ommasining ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni. Sinflar va millatlar ijtimoiy taraqqiyot sub'yektlari sifatida. Ijtimoiy taraqqiyotga sinfiy yondashuvning cheklanganligi. Milliy ozodlik harakatlari va ijtimoiy taraqqiyot. Buyuk zot, tarixiy shaxs tushunchalari. Tarixda shaxsning o'rni. Fatalizm, volyuntarizm nazariyalari. Ijtimoiy taraqqiyotda inson omili.
M15	**Ijtimoiy bilish. Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarish** Bilish. Ilmiy bilish. Ijtimoiy bilish, uning mohiyati va uning o'ziga xos jihatlari. Ijtimoiy bilish haqidagi qarashlar. Naturalizm. Gumanitarizm. Ijtimoiy bilish tarkibi. Ijtimoiy bilish sub'yekti va ob'yekti. Ijtimoiy xaqiqatga erishish – ijtimoiy bilishning maqsadi. Jamiyatni ilmiy bilish. Ijtimoiy bilish va uning darajalari. Empirik va nazariy bilish. Empirik bilish metodlari. Kuzatish. Ijtimoiy eksperiment. Statistik usul. Manbalar, xujjatlar bilan ishlash. Nazariy bilish va uning metodlari. Tarixiylik va mantiqiylik. Modellashtirish. Tarixiy analogiya. Ijtimoiy bashorat. Ijtimoiy bilishning jamiyatni anglash, boshqarish va kelajak istiqbollarini aniqlashdagi o'rni.
M16	**Sivilizatsiya va uning mohiyati va mazmuni** Sivilizatsiya, uning o'ziga xos xususiyatlari. Sivilizatsiya haqidagi falsafiy qarashlar. Sharq sivilizatsiyasi. G'arb sivilizatsiyasi. Insoniyat – tarix sub'yekti sifatida. Insoniyat taqdirining mushtarakligi. Hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari. Globallashuv va jahon. Insoniyat taqdiri masalasi. BMT ning Mingyillik rivojlanish maqsadlari. Hozirgi davr: umumbashariy muammolar.
M17	**O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga interratsiyasi (2 s)** Har bir xalq, millatning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borishi qonuniy jarayon sifatida. Jahon hamjamiyati: ayrimlik, o'ziga xoslik, umumiylikning namoyon bo'lishi. O'zbekiston xalqaro munosabatlarning sub'yekti, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi. O'zbekiston tashqi siyosatining mohiyati, asosiy yo'nalishlari va tamoyillari. O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga integratsiyalashuvi: ikki yoqlama va ko'p yoqlama (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy) hamkorlik. Xalqaro miqyosda tinchlikni mustahkamlash va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning tutgan o'rni va roli. O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzining ortib borayotganligi.
M18	**Fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari** Fuqarolik jamiyatining mavjud bo'lish shart-sharoitlari; uning oila bilan davlat o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy bosqich ekani; fuqarolik jamiyatidagi o'z-o'zini boshqarish tizimi va uning ahamiyati; milliy-mintaqaviy fuqarolik jamiyatining vujudga kelishida mahallaning roli; fuqarolik jamiyatining tabaqaviylik xususiyati va unda mchnatning roli;
M19	**Jahon tajribasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati.** G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. XX asr oxiri – XXI asr boshida dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari chuqurlashishi, ma'naviy-axloqiy inqiroz kuchayishi sharoitida G'arb mamlakatlari fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik siyosati. Hozirgi davrda AQSH, Fransiya va Germaniyada NNTning faoliyati va ularni rasmiylashtirish tartiblari. Janubiy SHarqiy Osiyo mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar: seminar (S) Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
S1	Ijtimoiy falsafa fanining bahs mavzusi va vazifalari
S2	Ijtimoiy falsafa tarixi.
S3	Jamiyat – yaxlit tizim sifatida
S4	Jamiyat hayoti va taraqqiyoti omillari
S5	Jamiyatning iqtisodiy hayoti
S6	Jamiyatning ijtimoiy hayoti
S7	Jamiyatning siyosiy hayoti
S8	Jamiyatning ma’naviy hayoti
S9	Fan. Fan – ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida
S10	Madaniyat va qadriyatlar
S11	“Qonun”-ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida
S12	Qonun ustuvorligi - fuqarolik jamiyatining muhim omili.
S13	Jamiyat va shaxs
S14	Ijtimoiy taraqqiyot – tabiiy-tarixiy jarayon sifatida
S15	Ijtimoiy taraqqiyot sub’yektlari va harakatlantiruvchi kuchlari
S16	Ijtimoiy bilish. Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarish
S17	Sivilizatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati
S18	O’zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga integratsiyasi
S19	Fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari
S20	Jahon tajribasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar
Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
“Ijtimoiy falsafa” fani bo’yicha ma’ruza mashg’ulotlari bo’yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Ijtimoiy falsafaning jamiyatdagi o’rni va vazifalari.
2.	“Avesto” ning ijtimoiy-falsafiy g’oyalari
3.	Qadimgi Sharqda shakllangan ijtimoiy falsafiy qarashlar. Konfutsiylik axloqiy ta’limotlari
4.	Hozirgi zamon jamiyatining tahlili
5.	Fuqarolik jamiyatining hozirgi zamon konsepsiyalari
6.	Mahalla – fuqarolik jamiyati instituti sifatida.
7.	Abu Rayxon Beruniyning jamiyat haqidagi g’oyalari.
8.	Geografik siyosat. O’zbekistonning geografik siyosati.
9.	Milliy hamjihatlik, millatlararo totuvlik – barqarorlik va taraqqiyot omili.
10.	Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyati va fan.
11.	Barkamol shaxsning fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o’rni.
12.	Insonning mohiyati haqidagi hozirgi zamon konsepsiyalari.
13.	Dunyo xalqlarining axloqiy mentaliteti
14.	Fukarolik jamiyati shakllantirishda oila va davlatning axamiyati
16	Tasavvuf falsafasida inson muammosi.
17	G’arbiy Yevropa uyg’onish davri falsafasida inson va insonparvarlik g’oyalari
18	Jamiyatni ilmiy bilish metodlari.
19	Jamiyat taraqqiyoti va demokratiya.
20	Sivilizatsiya va uning mohiyati va mazmuni
21	O’zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga interratsiyasi
22	Jahon tajribasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati.
23	O’zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzining ortib borayotganligi.
24	Demokratik institutlar tushunchasi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari
25	Ijtimoiy taraqqiyot qonunlari tushunchasi.
26	Qonun tushunshasi uning mazmun va mohiyati.

Ijtimoiy falsafa fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. talabalarni jahon faylasuflari va ularning falsafiy ta’limotlari bilan tanishtirish, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining Vatan va jahon madaniyati, falsafasi fanining rivojlanishidagi hissasi, o’rnini ma’naviy-mafkuraviy qurollantirish ularni faylasuflarni falsafiy konsyepsiyalarining mazmuni, uning o’z-o’zini tashkil etishi, moddiylik va ma’naviylik tushunchasi, uning mohiyati singari noan’anaviy fikrlashga ko’maklashish antik davr, o’rta asrlar va yangi davr falsafiy bilimlarini rivojlanishi va ularning hozirgi ijtimoiy-gumanitar bilimlar haqida.tasavvurga ega bo‘lishi;.
Talabalar falsafiy fikr taraqqiyoti jarayonini yaxlit tarzda tasavvur qila olishi, ayni paytda, turli xil falsafiy oqimlar, yo‘nalishlar, ta’limotlarning mohiyatini tushunib yetishi, ularning ilmiy qadr- qimmati va bugungi kun uchun ahamiyatini to‘g‘ri baholay olishi zarur. bilishi va ulardan keng foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;
.Borliqning shakllari, inson borliqning o‘ziga xos xususiyatlari, ma’naviy borliq: individuallashtirilgan va ob’ektivlashtirilgan borliq, ijtimoiy borliq, virtual borliq, olamning paydo bo‘lishi va evolyusiyasi, er tarixi, insonning paydo bo‘lishi va evolyusiyasi, tirik tabiat yoki hayotning paydo bo‘lishi, hayotning paydo bo‘lishi haqidagi falsafiy optimizm, jonli narsalarning o’ziga xos xususiyatlari muammolar bo‘yicha bilimlar, yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • **“Ijtimoiy falsafa”** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko‘lami, davrning o‘z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** • Talaba **“Ijtimoiy falsafa”** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo‘lishi, o‘rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to‘g‘ri talqin qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***. Talaba o‘zlashtirayotgan fan bo‘yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to‘plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo‘llash ***malakalariga ega bo‘lishi kerak***.
4.	**VI. Ta’lim texnoligiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; “KHWL” metodi; “SWOT” tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev.Falsafa:Darslik.-Samarqand.2021. – 712. 2. Samadov A.R. Ijtimoiy falsafa. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand. 2015, 160 b. 3. Choriyev A. Inson falsafasi. – T., 2006 yil 4.Ahmedova M. Falsafa. T., 2006. 5.Falsafa. Ensiklopedik lug’at. - T., “O’zbekiston milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashiryot, 2010 yil.

	Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar 1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 2003 yil. 2. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. – T., «Sharq» 2001 yil. 3. Aflotun. Qonunlar. / Rus tilidan Urfon Otajon tarjimasi. –T., "Yangi asr avlodi", 2002 yil 4. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk.,- T., "Adolat", 1997 yil. 5. Temur tuzuklari.-T., G`. G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1996 yil. 6. Otamurodov Sa'dulla, Otamurodov Sarvar. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. – T., «Yangi asr avlodi», 2003 yil. 7. Tulenova G «Barkamol yosh avlod – istiqlol tayanchi"-T.: 2004. 8. Tulenov J, Tulenova G. "Istiqlol va millatlararo munosabatlar taraqqiyoti" – T.: 2005. 9. Tulenova G. "Ma'naviy yetuklikdan ijtimoiy faollik sari" – T.: 2008. 10. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество.- Москва, 1992. 11. Jo'raev N.Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T., 2008 y. 12. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – T., "O'zbekiston", 2012 yil. 13. Hakim Boboyev. O`zbek davlatchiligi tarixi.I kitob.-T., "Fan", 2004yil. 14.Komilov N.Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. I kitob,-T., "Yozuvchi" nashriyoti,1996 yil. 15. Ш.Монтескье. Избранные произведения. -М.1995. 16 . Otamurodov S. Globallashub va millat. -T.: 2008. 17. Azizov Sh, Azizova S. Ma`rifatparvarlik – ijtimoiy-madaniy hodisa. -T.: 2008. "ABU MATBUOT -KONSALT" nashriyoti. 18. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga.-T., 2002yil. 19. Sharifxo`jayev M. O`zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. -T., "Sharq", 2003yil. 20. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O`zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi muammolari.-T., 2009yil. 21. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. – T., 1997 22. Tulenov J. Dialektika nazariyasi- T.,"O'zbekiston" , 2001. 23. Karimov I., Valieva S., Tulenova K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo'llanma). - T., 2008 yil. 24. Karimov Ibrohim. Falsafa tarixi va nazariyasi. -T., 2007. 25. Karimov Ibrohim. Falsafa fanidan va'z matnlari. -T., 2013. **Elektron ta'lim resurslari** 1. www.tdpu.uz 2. www.pedagog.uz 3.www. Ziyonet.uz 4. tdpu-INTERNET.Ped.
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "___" _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul:** A.Samadov– Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi professori
9.	**Taqrizchilar:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, , Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi dots. (ichki) M.Muxtorov O.G'aybullayev– Samarqand Davlat chet tillar instituti, F.F.d, prof.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Normamatova

Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti,dekani **prof. A.Aymatov**

SamDU o'quv ishlari Bo'yicha prorektor **prof. A.Soleev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Ijtimoiy falsafasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbbu fan dasturi oliy ta'lim tizimda bakalavr bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Ijtimoiy falsafasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassalari kengashlari tamonidan tasdiqlanadi. Fan bo'ycha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.
Dasturda "Ijtimoiy falsafasi" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti,
Falsafa va milliy g'oya kafedrasi dotsenti **M.Muxtorov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Ijtimoiy falsafasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

"Ijtimoiy falsafasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassalari kengashlari tamonidan tasdiqlanadi. Fan bo'ycha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.
Dasturda "Ijtimoiy falsafasi" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Samarqand chet tillar instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

professori O.G'aybullayev

O.G'aybullayev IMZOSINI TASDIQLAYMAN SamDCHTI KADRLAR BO'LIMI BOSHLIG'I